

## XURSHID DO'STMUHAMMADNING "HIJRONIM MINGDIR MENING" QISSASI AYRILIQ, TA'SIRLANISH VA MAKTUBLAR SEHRINING BADIY TALQINIDIR

**Dusmuratov Qahromon Mamadiyevich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi  
qaxramondusmuratov123@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377883>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening" qissasining badiiy xususiyatlariga bag'ishlangan. Maqolada asarning kompozitsion tuzilishi, qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar, maktub janrining o'ziga xosligi va badiiy-estetik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, asarda ayriliq, muhabbat, umid va umidsizlik kabi tuyg'ularning ifodalanishi, maktublarning qahramonlar ichki dunyosini ochib berishdagi roli va ularning asar ta'sirchanligiga qo'shgan hissasi ko'rsatib berilgan. Maqola adabiyotshunoslar, filologiya talabalari va o'zbek adabiyotiga qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek adabiyoti, qissa, maktub, ayriliq, muhabbat, kompozitsiya, badiiylik, tahlil

**Abstract:** This article is devoted to the artistic features of the story "Hijronim mingdir mening" by Khurshid Dostmuhammad. The article analyzes the compositional structure of the work, the relationships between the characters, the uniqueness of the letter genre, and its artistic and aesthetic possibilities. It also shows the expression of feelings such as separation, love, hope, and despair in the work, the role of letters in revealing the inner world of the characters, and their contribution to the effectiveness of the work. The article is intended for literary critics, philology students, and all readers interested in Uzbek literature.

**Keywords:** Uzbek literature, story, letter, separation, love, composition, artistry, analysis

O'zbek adabiyotining XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridagi rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu davrda yaratilgan asarlar inson ruhiyatining murakkabligi, milliy qadriyatlarga sodiqlik va zamonaviy dunyoqarashni uyg'unlashtirishga intilish bilan ajralib turadi. Xurshid Do'stmuhammad "Hijronim mingdir mening" qissasi ana shunday asarlardan biri bo'lib, unda ayriliq, muhabbat, umid va umidsizlik kabi tuyg'ular o'z aksini topgan. Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening" qissasi 1996-yilda yozilgan. Asar biror ism bilan nomlanmagan ikki qahramon yigit va qizning 32 maktubidan iborat. Uning syujetida sabab-voqea munosabati yetakchilik qiladi. Muallif kundalik voqealar va qahramonlarning xatti-harakatlarini atroficha tasvirlashni maqsad qilmagan. Qahramonlarning muhabbat haqidagi qarashlari mazmun-mundariyasi asarning leytmotivini tashkil etadi. Yigit va qizning munosabatlari muhabbat mavzusidagi realistik asarlar personajlarining munosabatlariga o'xshamaydi.

"Hijronim mingdir mening" qissasida qahramonlar bir-birlariga bir umr yetisha olmasligini bilishadi. Kitobxonni ularning visoliga nima to'sqinlik qiladi degan savol o'ylantiradi. Bu savolga javob topish uchun asar davomida qahramonlarning ichki dunyosiga, ularning o'tmishiga va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga nazar tashlash lozim. Qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy sharoitlari, mansabdorlik darajasi va

jamiyatdagi mavqei ularning birga bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Sovet davrida shaxs erkinligining cheklanishi, siyosiy qatag'onlar, ideologik tazyiqlar qahramonlarning taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qahramonlarning o'zaro munosabatlaridagi tushunmovchiliklar, xarakteridagi farqlar, orzu-umidlari va maqsadlaridagi ziddiyatlar ularning ayrilishiga olib kelishi mumkin. Ba'zan qahramonlarning taqdiri shunday bo'lishi mumkinki, ular bir-birini sevib qolishsa ham, birga bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Xurshid Do'stmuhammad "Hijronim mingdir mening" qissasida kitobxonni behad ta'sirlanishga va chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Asar o'quvchining qalbida turli xil his-tuyg'ularni uyg'otadi. Kitobxon qahramonlarning taqdiriga achinib, ularga rahmdil bo'ladi. Asardagi voqealar o'quvchini hayratga soladi va hayajonlantiradi. Kitobxon qahramonlarning visoliga umid qiladi, lekin ularning ayrilishi uni umidsizlikka tushiradi. Asar o'quvchini hayotning ma'nosi, muhabbatning qadri, vaqtning o'tkinchiligi kabi falsafiy masalalar haqida o'ylashga undaydi.

Maktublar - Badiiy vosita sifatida "Hijronim mingdir mening" qissasida maktublar juda katta ahamiyatga ega. Maktublar qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishga, ularning o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga va asarning g'oyaviy mazmunini ifodalashga xizmat qiladi. Maktublar orqali Qahramonlarning his-tuyg'ulari ifodalanadi: Qahramonlar maktublarda o'z sevgisini, sog'inchini, umidini va umidsizligini samimiy ifodalaydilar. O'tmish voqealari eslanadi: Qahramonlar maktublarda o'z o'tmishini, boshidan kechirgan voqealarini eslaydilar va bu orqali o'quvchi ularning hayoti bilan tanishadi. Qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar rivojlanadi: Maktublar qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga turtki beradi. Ular maktublar orqali bir-birini yaxshiroq tushunadilar, yaqinlashadilar va munosabatlarini mustahkamlaydilar. Maktublar orqali asarning g'oyaviy mazmuni ochiladi. Qahramonlarning fikrlari, qarashlari, dunyoqarashi maktublarda o'z aksini topadi.

Xurshid Do'stmuhammad "Hijronim mingdir mening" qissasida kitobxonni behad ta'sirlanishga va chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Maroq bilan, chin qalbdan o'qiladigan haqiqiy badiiy asar yaratadi. Va bunda aynan maktub vositasi juda katta xizmat qilgan. Asarda ayriliq, muhabbat, umid va umidsizlik kabi tuyg'ular o'z ifodasini topgan. Qahramonlarning taqdiri kitobxonni ta'sirlantiradi va ularning visoliga nima to'sqinlik qilganligi haqida o'ylashga undaydi. Maktublar esa qahramonlarning ichki dunyosini ochib beradi.

Ushbu qissaning kompozitsion tuzilishi katta-kichik maktublardan tashkil topgan. Bu kabi hodisalar adabiyotimizda ko'p uchramaydi. Maktublardan iboratligi jihatidan Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari", Iqbol Mirzoning "Bonu" romanlarini hamda Navoiyning "Munshaot"ini ham eslatib yuboradi. Ammo yuqoridagi ikkita asarda maktub mualliflarining adresatga yo'llagan maktublari jamlanib, badiiy asarlar yuzaga kelgan. Shu bilan birgalikda, ushbu asarlarda syujet ketma-ketlikda izchil berib boriladi, voqealar rivoji mavjud. Navoiyning "Munshaot" asari esa turli davrlarda turli kishilarga yuborilgan maktublardan tashkil topgan. "Hijronim mingdir mening" qissasida esa, ma'lum bir syujet chizig'i mavjud emas, unda voqealar muallif va adresatning ketma-ket maktublari fonida boradi. Har ikki qahramonning bittadan maktubi jamlanib bir qismni tashkil etadi. Avval yigitning maktubi, so'ngra unga javob tariqasida yo'llangan qizning maktubi keltiriladi. Bular shunchaki xatlar emas, haqiqiy badiiy asar darajasiga ko'tarilgan. Asar qahramonlari yuzma-yuz

gaplashgandan ko'ra maktub yozishni afzal bilishadi. Chunki har ikkisining qalbida cheksiz ishq olovi bor. Bordi-yu, uchrashgan taqdirida ham bir-biriga bir so'z deymaydi. Chunki ishq otashi qablarni kuydiradi. Agar tilga ishor chiqqudek bo'lsa, tillarni kuydiradi, gapirishga tillar ojizlik qiladi. Bu dil izhorlari faqatgina maktublarda oydinlashishi mumkin. Misol uchun, qahramonlardan biri shunday yozadi: "Hayolan ming ko'chaga kirdim. Yashiradigan joyim yo'q. izingizdan poyladim. Ishxonadan chiqib ikki ayol, bir erkak hamrohingiz edi. Avtobus bekatiga bordinglar. Oramizda hoy desa eshitgulik masofa. Orziqib kutgan lahzalarim, mana marhamat, yetishdim. O'n qadam, besh qadam, uch qadam yursam bas, visol-l. kutilmagan ahvolga tushdim. Jonim, oyog'imni yerdan uzolmasam deng. Mixlangandek yoki yerdan o'sib chiqqan odamdek qilt etib siljiyolmadim. Yuragim qinidan chiqqudek gursillay boshladi"<sup>1</sup>. Ushbu parchadan ham qahramonning yuzma-yuz uchrashuvga tayyor emasligi, ichki kechinmalari kuchliligi yaqqol sezilib turibdi. Maktublarda ishorlarni qayta o'qish imkoni cheksiz. Yuzma-yuz uchrashganda esa, bunday emas. Xohlagan vaqtingizda ishorlarni eshita olmaysiz. Maktubni qayta-qayta o'qiganingiz sari, undagi so'zlar tobora oydinlashib, ta'siri kuchayib boraveradi. Muallif o'z tuyg'ulari ishori uchun maktubdan boshqa imkonni ko'rmaydi va haqiqatdan ham shunday. Tuyg'ularni ifodalash uchun maktub yagona vosita. Boshqa usullarda bu tuyg'uga aziyat yetishi, ohori to'kilishi, boricha qalbga yetib bormasligi mumkin. "Oramizdagi yolg'iz Ollohga ayon rishtalar sehrini saqlash va ardoqlashning maktubdan bo'lak yana qanday chorasi, imkoni bor?"<sup>2</sup> Aslida maktublarning asl jozibasi shundaki, adresat ko'z o'ngida muallif jonlanadi, xat yo'llovchini o'z tasavvurida his qilgani qadar ko'ra oladi. Maktublar shunday kuchga egaki, asardagi so'zlarning ta'sirchan bo'lishiga aynan maktub shaklida yozilganligi sabab bo'lgan. Muhabbat maktublarda boqiylik kasb etadi. Maktub vositasida ikki kishi o'rtasida maktubiy yaqinlik paydo bo'ladi. Dastlab yigit o'z tuyg'ularini ifoda qilishga yo'l izlaydi va bu yo'lni topgandek bo'ladi. Asarda bu holat shunday izohlanadi: "...tushuniksiz va notavonlikdan xalos bo'lish chorasini izlashga kirishdim. Xat ko'ngil ko'prigi, bu ko'prik ikki kishi uchun bunyod etiladi, unga shu ikki kishidan bo'lak hech kim qadam bosmaydi va unga begona nazar ham tushmasligi kerak. Chunki ikki ko'ngil to'ridagi eng bokira, eng erka orzu-armonlar ushbu ko'prik – maktub vositasi-la yo'llanadi...

### **Xulosa**

Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir mening" qissasi o'zining o'ziga xos kompozitsion tuzilishi, qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishdagi mahorati va maktubning badiiy-estetik funksiyasini namoyish etishi bilan o'zbek adabiyotida muhim o'rin egallaydi. Asarda maktub nafaqat axborot uzatish vositasi, balki qahramonlarning his-tuyg'ularini, kechinmalarini va orzularini ifodalash uchun yagona imkoniyatdir. Maktublar orqali yaratilgan maktubiy yaqinlik asarga o'ziga xos ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ahmedova Sh. Maktubot va adabiy tanqid. Toshkent. "Fan" 2005.



2. Hasanova H. Maktub genesisi, tadrijiylik badiiy asar kompozitsiyasidagi o'rni. MD. – Farg'ona. 2020.
3. Omon Matjon. Adabiy suhbat. Nurli halqachalar. 2012
4. Xurshid Do'stmuhammad "Hijronim mingdir mening". Qissalar to'plami.